

Etnomadaniy Lug'aviy Birlıklar Va Ekzotizmlar Munosabati

Madaminova Ra'no Yusupbaevna¹

Annotatsiya: Bu maqolada Qoraqalpog'istonda istiqomat qiladigan turkiy xalqlarning bir-biriga qondosh va qardosh ekanligini ko'rsatadigan, etnik jihatdan turkiy xalqlarning avlod-ajdodlari ekanligini to'la tasdiqlaydigan milliy qadriyatlarimiz haqida aytiladi.

Kalit so'zlar: Etnomadaniy, lug'aviy, ekzotizm, birlik, leksiksa, urf-odat, dastur, an'analar, sheva, lahja, etnografizm.

Ma'lum hududda yonma-yon yashovchi xalqlar har doim bir-biriga ta'sir ko'rsatadilar, bir-biridan so'z olib, o'zlashtiradilar. Qoraqalpog'iston hududida yashaydigan turkiy xalqlar nutqida uchraydigan etnografizmlarning atalish motivlariga ko'ra turlari rang-barang bo'lib, aholi turmushining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Har bir xalq leksikasida shunday so'zlar borki, ular shu xalqning maishiy turmushi, qavm-qarindoshligi, kiyinishi, marosimlari va shunga doir tushunchalarni ifodalaydi. Xalqning ma'lum bir guruhida uchraydigan so'zlar boshqa xalq yoki uning guruhida uchramaydi. Etnografik leksikaning qamrovi keng bo'lib, uning obyektini inson hayotining deyarli barcha qirralari bilan bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasida turkiy xalqlarning o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa vakillari asrlar davomida bir jon, bir tan bo'lib farovon hayot kechirib kelmoqda. Ularning urf-odat, dastur va an'analari bir-biriga juda yaqin, etnik jihatdan turkiy xalqlarning qipchoq va o'g'iz guruhlariga mansubdir.

Bu o'lkada qoraqalpoqlar bilan bir qatorda o'zbek xalqining qipchoq va o'g'uz lahjalariga mansub aholisi istiqomat qiladi. Janubiy To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarida o'g'uz sheva vakillari, Beruniy, Amudaryo, Xo'jayli, Qo'ng'iro't tumanlarida qipchoq shevasi vakillari yashaydi. Bulardan tashqari, Sho'manay, Qonliko'l tumanlari hududida ham qipchoq guruh o'zbek sheva vakillari qoraqalpoqlar bilan birga istiqomat qilib kelmoqda. Qoraqalpog'istonda istiqomat qiladigan o'zbek dialekt va shevalarida qavm-qarindoshlik atamaları asrlar davomida saqlanib qolgan bo'lib, qoraqalpoq xalqi qarindoshlik atamalariga juda yaqin turadi. Qarindoshlik atamalarining paydo bo'lish jarayoni qadim tarixga ega va uzoq davrlar samarasi sifatida xalqimiz orasidagi qarindoshchilik rishtalarini bildirib kelmoqda.

Turkiyshunoslikda qarindoshlik atamaları turli tillar materiallari asosida E.V.Sevortyan, V.I.TSintsius, L.A.Pokrovskaya, I.Ismailov, X.G.Yusupov, N.V.Bikbulatov, R.G.Muhammedova, A.Djumaqulov, L.Ong'arbakova, V.Butanayev kabilarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Qavm-qarindoshlik atamaları turkiy tillarda I.Ismailov tomonidan chuqur o'rganildi². Shuningdek, turkiy tillarning qipchoq guruhi o'zbek shevalari qavm-qarindoshlik atamaları Samarqand shevalari misolida prof. X.Doniyorov tomonidan ham alohida ta'kidlanadi³.

Keyinchalik Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan yetuk olimlar A.Ishayev, Y.Ibragimovlar tomonidan shevashunoslikka oid salmoqli tadqiqotlar amalgam oshirildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qavm-qarindoshlik atamalarining asosiy qismini umumturkiy qatlamga mansub so'zlar tashkil qiladi. Ular asrlar davomida har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, o'tmishi bilan bog'liq milliy qadriyatlar sifatida avlodlardan avlodga o'tib saqlanib kelinmoqda.

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

² Исмаилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.34.

³ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.56.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan turkiy xalq vakillari nutqida uchraydigan qavm-qarindoshlik atamalarini quyidagicha tasnif qilish mumkin.

Umumturkiy Atamalar	Qipchoq lahjasida	O‘g‘iz lahjasida	Qoraqalpoq adabiy tilida	O‘zbek adabiy tilida
Ata	ota	Ota	ata	Ota
Ana	aba//ava	Apa	apa	Ona
Aka	aka//ake	ag‘a	ake	Aka
og‘ul	Ul	Ul	ul	o‘g‘ul
QYZ	qyz	Qiz	qyz	Qiz
Iny	iny//uka	Ini	iny	Uka
Kalin	kelin	Galin	kelin	Kelin

Qavm-qarindoshlik atamaları kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi:

1. Nikohdan oldingi qavm-qarindoshlik atamaları: *ota, ona, aka, uka, amma, xola, o‘g‘il, qiz, yigit* kabi.
2. Nikohdan keyingi qarindoshlik atamaları: *kelin, kuyov, er, xotin, qayin, checha, baldiz, abysin* kabi.

Har bir qavm-qarindoshlik atamasining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti turlicha bo‘lib, o‘zbek xalq shevalarida ular fonetik va leksik jihatdan farqlanadi. Masalan, Xo‘jayli shevasidagi *aba (ava)* atamasi XI-XIV asrlarga xos yozma manbalarda ham shi tarzda uchraydi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida qadimdan iste‘molda bo‘lib kelingan *qiz* va *o‘g‘il* atamaları hozir ham bu shevalarda saqlanib qolgan. Har ikkala xalqqa mushtarak bo‘lgan «Alpomish» dostonida esa bu atama *ul* shaklida uchraydi. Masalan: *Akang bizga minnat qildi ulini*⁴. Demak, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalariga xos bo‘lgan *ul* atamasi dostonida ham shu shaklda qo‘llaniladi. Shuningdek, qipchoq guruh o‘zbek shevalarida *yanga* so‘ziga sinonim sifatida *checha* atamasi ham qo‘llaniladi:

Er yigitning yorin qalmoq olarmi,

*Barchin checham talash bo‘lib qolarmi*⁵.

Qoraqalpoq tilida esa *sheshe* atamasi ona so‘ziga sinonim bo‘lib, *yanga* so‘zidan farq qiladi. Qoraqalpoq tilida *jeŋge* so‘zi *checha* so‘zi ma‘nosida ishlatiladi: *qalmaqqa ketgen jeŋgem bar*⁶. Nikoh marosimidan keyin yuzaga keladigan qarindoshlik atamalaridan *quda* va *qudag‘ay* so‘zlari jins sifatida farqlanadi. Er kishiga nisbatan *quda*, ayol kishiga nisbatan esa *qudag‘ay* atamaları ishlatiladi. Qarluq lahjalarida esa har ikkala jinsga nisbatan ham *quda* so‘zi ishlatilaveradi. Bu haqda Farg‘ona shevasi yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borgan A.Mamatov *quda* va *qudag‘ay* so‘zlarining bir-biridan farqini quyidagicha izohlaydi⁷. *Qudag‘ay* atamasi kelin va kuyovning tog‘a, xola, amma, aka-uka va opa-singillarini umumlashtirib ifodalashini, qudaga nisbatan ikkinchi darajali shaxslarga nisbatan qo‘llanishini ta‘kidlaydi. Aslida *quda* mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, unga -g‘ay//-g‘iy affiksini qo‘shish orqali ayol jinsiga mansub *qudag‘ay // qudag‘iy* so‘zlari kelib chiqanligini inkor qiladi. Lekin Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari va qoraqalpoq tilida bu so‘zlar keskin farqlanadi.

Qayin so‘zining etimologiyasi haqida ham har xil qarashlar bor. Bu so‘zning ma‘nosi nikoh orqali hosil bo‘ladigan barcha qarindoshlarning nomi. *Qayin* so‘zi nikoh, ya‘ni er yoki xotin tomonining qarindoshlari ma‘nosida XI asrda ham ishlatilgan. Jumladan, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida “qada”, “qon-qarindosh” va “qayin” – “nikoh qarindosh” bir-biriga qarama-qarshi ma‘noda qo‘llanilgan. Shuningdek, *qayin* so‘zi nikohdan keyin yuzaga keladigan qarindoshlik atamaları sifatida barcha turkiy tillarda bir xil shaklda uchraydi. Shu bois bu atama asosida quyidagi qarindoshlikni

⁴ Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари. 1-том. – Тошкент, 1992. – Б.12.

⁵ Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари. 1-том. – Тошкент, 1992. – Б.67.

⁶ Қарақалпақ фольклоры. Көп төмлық. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2007. – Б.19.

⁷ Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар. – Тошкент, 2009. – Б.32.



ifodalovchi soʻzlar yuzaga kelgan. Masalan: *qayinota, qayinona, kayinbiyka, qayinsingil* kabilar. Qoraqalpoq tilida esa bunday atamalar baʼzi fonetik va leksik jihatidan oʻzgargan *qaynagʻa, qaynapa, qaynibiykesh, qayni* kabi shakllarda uchraydi. Baʼzan qayni yoki biykeshining ismi hurmat tarzida *mirzagʻa, habala, sulʼuu qyız* kabi erkalash maʼnosida ham qoʻllaniladi: *Ulkeniniz qaynagʻa, kishkeneñiz mirzagʻa, ortanshyñyz qurdasym*⁸ kabi.

Qarindoshlik atamaları barcha qipchoq guruh oʻzbek shevalari va qoraqalpoq tilida bir-biriga yaqin atamalar bilan atalishining asosiy sababi bu xalqlarning asl kelib chiqishi bir ekanligidan dalolat beradi. Masalan: *jezda, boʻla, jıyan, checha, jenga, qayin, dayi, xola, amma* va boshqalar. Samarqand qipchoq shevalarini kuzatgan yetuk olim X.Doniyorov «Qipchoq dialektlarining leksikasi» nomli asarida bu haqda toʻla maʼlumot beradi⁹.

Ekzotizm – bu tildagi boshqa bir xalq turmush tarzi va hayotiy voqea- hodisalarini ifodalaydigan, nofaol leksika. Ekzotizmlar ham dialektizm hamda etnografizm kabi muqobilsiz leksika turiga kiradi va oʻzi mavjud boʻlmagan xalq tiliga toʻliq oʻzlashmaydi, ular tarjima qilinmaydi. Matn tarkibida kelganda esa tilda mavjud iboralar yoki tasviriy vositalar yordamida maʼnosi oydinlashadi. Etnik, milliy hodisalarni ifodalaganligi uchun boshqa xalq tiliga toʻla singib ketmaydi. Koʻp hollarda oʻzi kirib borgan tilning asosiy lugʻat tarkibiga qoʻshilmasdan, zaxira soʻzlar qatorida boʻladi va asosan, zarurat tugʻilganda qoʻllaniladi. Ekzotizmlarning qoʻllanish doirasi tor, shuning uchun bunday soʻzlar oʻzi mavjud boʻlgan madaniyat haqida gapirilganda, ularga xos tillarni oʻzaro taqqoslash jarayonlarida, baʼzan metaforik maʼno koʻchishi bilan bogʻliq vaziyatlarda ishlatiladi.

Oʻzbek tilidan tillarga ekzotik leksika sifatida kiradigan lugʻaviy birliklarning bir qismi, asosan, etnografizmlardir. Etnografizmlarning muayyan xalqning turmush tarziga xosligi, boshqa xalqda turmush tarzining shu turining yoʻqligi, maʼlum narsa, hodisalarning oʻsha tilda ifodalovchi vosita mavjud emasligi tufayli boshqa tilga oʻtgan soʻz ekzotik soʻz boʻlib qoladi. Biroq vaqti kelib ekzotik soʻzlar ham til lugʻat tarkibidan oʻrin olishi, faol lugʻaviy birlikka, hatto shu xalqning urf-odatini ifodalovchi birlikka ham aylanishi mumkin. Masalan, Navroʻz soʻzi qachonlardir oʻzbek tili uchun ekzotik soʻz boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda marosim leksikasiga aylangan.

Dunyo tilshunosligida ekzotizmlar terminiga berilgan taʼriflar deyarli bir xil. Xususan, T.V.Jerebilo ekzotizmga quyidagicha taʼrif beradi, “*ekzotizm* atamasi yunoncha soʻz boʻlib, “*ekzo*” – “*tashqarida*” degan maʼnoni bildiradi va “*chet ellik*”, “*mahalliy boʻlmagan*” deb tarjima qilinadi. Ekzotizmlar muqobili boʻlmagan leksika tarkibiga kirib, boshqa xalqlar va madaniyatlarga xos boʻlgan, oʻzi mavjud boʻlgan xalq madaniyatini toʻliq ochib bermasa ham, ramziy ifoda sifatida oʻsha xalq haqida tasavvur bera oladi”¹⁰.

Oʻzbek tilshunosligida ham mazkur tushuncha tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan atroflicha oʻrganilgan. D.Xudoyberganova ekzotik leksika (yun. *yexotikos* – yot, kelgindi)ni boshqa tillardan oʻzlashgan, nutqqa alohida tus berish uchun qoʻllaniladigan soʻz va iboralar; muqobilsiz leksika turlaridan biri¹¹ deb taʼriflaydi. Ekzotik leksikani monografik planda oʻrgangan professor N.Uluqovning fikricha, “*Ekzotik leksika boshqalarga qiziq, gʻalati tuyuladigan, turli xorijiy xalqlarga oid ijtimoiy munosabatlar, madaniy-maishiy hayot, tabiat hodisalari va milliy urf-odatlar, anʼanalar, voqea-hodisalar haqida axborot, maʼlumot beruvchi va shu asosda matnga xos “milliy libos”ni keng maʼnodagi milliy koloritni – milliy etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy, diniy ruhni va tabiiy-jugʻrofiy muhitni ifodalovchi, oʻzbek matnlarida asl holicha saqlangan chet til soʻzlaridir*”. Ana shulardan kelib chiqib, ekzotik leksikani tashkil qiluvchi birliklarni quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

1. Milliy bayramlar nomlarini bildiruvchi ekzotik birliklar: *pasxa, xoli, rojdestvo*. Oʻzbek tiliga xos va boshqa tillarga oʻtganda ekzotizmga aylanuvchi bayram nomlari: *navroʻz, roʻza hayiti, qurbon*

⁸ Каракалпак фольклоры. Көп төмлык. – Нөкис: Каракалпакстан, 2007. – Б.253.

⁹ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.58.

¹⁰ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е изд., испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С.486.

¹¹ Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терми́нларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Туррон замин зиё, 2015. – Б.39.



hayiti.

2. Milliy marosimlar va urf-odatlar nomlarini bildiruvchi ekzotik birliklar: *xoli, pasxa*. O‘zbek tiliga xos milliy marosim nomlari: *to‘y, yuzochar, kelinsalom, nonsindirar* kabilar boshqa tilga o‘tganda ekzotik so‘zga aylanadi.
3. Milliy liboslar nomlarini bildiradigan ekzotik birliklar: *sari, kimono, plash*. O‘zbek tilidagi *chopon, do‘ppi, peshband* so‘zlari boshqa tillar uchun ekzotizmdir.
4. Tarixiy shaxslar nomlarini bildiradigan ekzotik birliklar: *Napoleon, Gitler, Sezar, Amir Temur*.
5. Taomlar nomlarini ifodalaydigan ekzotik birliklar: *pitsa, palov, jiz, kif-si, lavash*.
6. Musiqa, raqs, cholg‘u asboblari bildiradigan ekzotik birliklar: *pop, rep, opera, balet, dutor, pianino, lazgi*.
7. Obrazlar, badiiy asar, kinofilm, multifilm qahramonlarini ifodalovchi ekzotik birliklar: *Gerakl, Alpomish, Spartak, Mikki-Maus, King Kong*.
8. Ba‘zi bir lavozimlar, unvon nomlarini ifodalovchi ekzotik birliklar: *lord, knyaz, amir, imperator, boyar, xalifa*.
9. Jarayon nomlari va boshqa ijtimoiy so‘zlarni ifodalovchi ekzotik birliklar: *grinkard, deport*.
10. Diniy so‘zlar va atoqli otlarni bildiruvchi ekzotik birliklar: *rohib, Muhammad, Iso*.

Ekzotizmlarning qo‘llanilish ko‘lami turli xil. Ular nafaqat og‘zaki nutqda, balki she‘riyat va badiiy asarlarda ham ko‘p uchraydi.

Bir qarashda umumiy xususiyatlariga ko‘ra etnografizm va ekzotizm bir-biriga juda o‘xshashdek. Ammo etnografizmdan ekzotizmdan keskin farqlab turadigan bitta asosiy farq bor: etnografizm boshqa tilga ko‘chib yursa ham, uning “begonaligi” sezilib turadi, ekzotizm esa xuddi ona tilida avvaldan mavjud bo‘lib kelgan so‘z singari o‘zining yot unsur ekanini deyarli sezdirmaydi. Masalan, *rahmat, marhamat, assalomu alaykum, ofarin, balli (bale), astag‘firulloh* singari so‘zlar nutqimizga singib ketgan. Ular urf-odatimizning ajralmas qismiga aylanib bo‘lgan, ularning yotligi ham bilinmaydi. Etnografizmlar esa o‘zga madaniyatga tegishli ekanini bildirib turadi.

Xullas, Qoraqalpog‘istonda istiqomat qiladigan turkiy xalqlarning bir-biriga qondosh va qardosh ekanligini ko‘rsatadigan, etnik jihatdan turkiy xalqlarning avlod-ajdodlari ekanligini to‘la tasdiqlaydigan milliy qadriyatlarimizdan biri sanaladi. Lekin turkiy xalqlar ko‘p dialekt va shevalardan iborat ekanligini e‘tiborga olgan holda ularning qavm-qarindoshlik atamaları ayrim fonetik, leksik-semantik tomonlari farq qilishi tabiiy hodisadir. Qarindoshlik atamaları nafaqat lisoniy, balki etnografik, tarixiy ahamiyatga ham ega. Boshqa so‘zlar kabi qarindoshlik atamaları ham tarixiy taraqqiyot mevasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.34.
2. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.56.
3. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари. 1-том. – Тошкент, 1992. – Б.12.
4. Қарақалпақ фольклоры. Көп төмлық. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2007. – Б.19.
5. Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар. – Тошкент, 2009. – Б.32.
6. Қарақалпақ фольклоры. Көп төмлық. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2007. – Б.253.
7. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.58.
8. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е изд., испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С.486.



9. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б.39.
10. Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Фил.фан.номз.дис.автореферати. – Тошкент, 1997.– Б.25.

